

**To‘lanova Moxizar**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning „Safar“ hikoyasi asosida ramziy obrazlar olami, uning hikoya mazmun-mohiyati, asar g‘oyasining badiiyatida tutgan o‘rni masalasi ochib berilgan. Adibning ramziy obrazlar tizimi, bayon uslubidagi ramziylikning asar mazmun-mohiyatidagi g‘oyasining davr ruhi bilan mutanosibligi ochib berilgan. Ijodkor nasriy asarlarida qo‘llanilgan ramziy obrazlarning turlari asar matnlari asosida dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** ramz, obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy estetik ideal, hikoya, talqin.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается мир символических образов в рассказе "Сафар" Улугбека Хамдама. Раскрывается значение символьческих образов в содержании и сюти рассказа, их роль в художественном выражении идеи произведения. Исследуется система символьческих образов, созданных автором, и их соответствие духу времени, отраженному в содержании произведения. Кроме того, приводятся доказательства использования различных символьческих образов в прозе автора на основе текстов рассказа.

**Ключевые слова:** символ, образ, сюжет, композиция, художественно-эстетический идеал, рассказ, интерпретация.

**Abstract:** based on Ulugbek Hamdam's story "Safar", this article reveals the world of symbolic images, the essence of the story, the role of the idea of the work in the art. The ratio of the writer's system of symbolic images, the idea of narrative style symbolism in the essence of the work with the spirit of the time is revealed. The types of symbolic images used in the author's prose works are proven based on the texts of the works.

**Key words:** symbol, image, plot, composition, artistic aesthetic ideal, story, interpretation.

Badiiy ijod jarayonida qo'llaniladigan ramzlar o'zining xarakteri, imkoniyatlari va bajaradigam funksiyasi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Aslida, borliqni o'z holicha emas, badiiy aks ettirishning turlaridan biri ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongacha yashab kelmoqda. Ramziy obrazlarni o'rganish rus adabiyotshunosligida kengroq sur'atda XX asr boshlaridan amalga oshirildi. N.Kostomarov xalq og'zaki ijodi poetikasi bo'yicha shug'ullangan folklorshunoslar ichida birinchilardan bo'lib, bu borada samarali ishlarni olib borgan. Ramz o'tgan asrning 80-yillaridan keyin Xitoy adabiyotshunosligida teran tadqiq qilina boshlangandan so'ng, olimlar tomonidan bu atamaga nisbatan turli farq qiluvchi qarashlar ilgari surila boshladi. Buning natijasida ramz haqida chuqur ilmiy asoslangan nazariy qarashlar paydo bo'ldi. Ramzning mohiyati haqidagi savollar Aristotel zamonidayoq ilm ahli oldiga qo'yilgan va to hozirgi kunga qadar bu masalaga oid turli xil qarashlar ilgari suriladi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ramz (arab – ishora qilmoq), (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligida ramzlar shunchaki oddiy o'shatish emas, balki mazmuni va mohiyati murakkab badiiy vositadir. Chunki har qanday ramz o'zining asl mohiyatidan tashqarida turuvchi predmetga yoki tushunchaga ishora qiladi.

Hikoya prozaning eng kichik janrlaridan biri bo'lsa-da, uning zamirida juda katta badiiyat hukm suradi. Xususan, yangi o'zbek nasriga tamal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor izidan borib, Ulug'bek Hamdam ham nasrdagi ijodiy mashqlarini hikoyadan boshlagan, bu

borada muayyan tajriba to‘plagach, qissa va roman janrlarida ijod qilishni boshlaydi. Bugungi kun hikoyalarida inson ruhiyatini, his-tuyg‘ularining keng silsilasini turfa ziddiyatli bo‘yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan tasvirlash yetakchi yo‘nalishga aylandi.

Ulug‘bek Hamdamning „Safar“ hikoyasida bir nechta ramziy obrazlarga duch kelamiz. Ana shu ramziy-majoziy timsollar asarning g‘oyasini ohib berishga xizmat qiladi. Ijodkor hikoyada haykal, kitob, tuman, ummon, boyqush kabi ramziy obrazlardan mohirona foydalangan. Asardagi har bir razmning badiiy g‘oyasi mavjud. Hikoya sarlavhasining o‘ziyoq ramziydir, chunki insonning bosib o‘tgan hayot yo‘li aslida safardir. Dunyoga kelgan har bir inson borki, safarga otlanadi. Safarning ibtidosi tug‘ilish, intihosi esa o‘limdir. Safar asarda inson umrining o‘lchovi ma’nosida timsoliy ifodalangan. Hikoyaning boshlanmasida yozuvchi peyzaj bilan boshlaydi: „Tinch ummon vazmin chayqaldi... Hozir esa suv yuzasini qalin oqish tuman qoplagani bois, qayiqdan turib qaralganda burun ostinigina ko‘z ilg‘aydi...“ Asarda tasvirlangan „ummon“ ramziy ma’noda hayot timsolidir. Ummoning tinch mavjlanishi ba’zan aldamchi ekanligi, uning o‘ziga yarasha xavflari borligi haqida aytib o‘tiladi. Haqiqatdan ham, ummon ramziy ma’noda hayot, xususan, har bir insonning hayot yo‘li bir qarashda tinch, sokin, yaxshidek tuyulsa-da, ammo, uning o‘ziga yarasha bir qancha qiyinchiliklari, yengilliklari bor. Asarda safar uchta qismga ajratilgan. Ushbu uch qismga ajratilishi ham ramziy ma’noga ega. Safarning uch bosqichi, ya’ni „safarning birinchi kuni“, „safarning ikkinchi kuni“ va „safarning uchinchi kuni“ kabi birikmalar kishini falsafiy mushohadalarga chorlaydi.

Hikoya voqealari ikki qabila vakillarining xuddiki o‘t va suvdek dushmanlik qilishlari bilan boshlanadi. Bu ikkala qabila vakillarining ajdodlari bobosi-yu momosi bir ekanligi, shu ikki insondan tarqalishganini yaxshi bilishadi. Lekin, o‘zları bir tan-u jon bo‘lisholmaydi. Asarda tasvirlangan “*Baxshilarning kuylashicha, orolga ular ko‘pchilik bo‘lib emas, bor-yo‘g‘i ikki kishi: bir yigit va bir qiz bo‘lib kelishgan. Hozirgilar ana o‘shalarning avlodlari. Faqat hech kim bilmaydiki, ular qayerdan kelishdi-yu, nega kelishdi, yana nima uchun aynan ikki*

kishi bo‘lib?”. Ushbu jumladan anglash mumkinki, dushmanlik qilayotgan qabilalar hozirda bir-birlari bilan ayovsiz urushlar qilayotgan qanchadan qancha davlatlarning timsoli bo‘lib, yigit va qiz esa Momo Havo va Odam Atoga ishoradir. Asarda keltirilgan qabilalar kichkinagina orolda yashardi. Yozuvchi orol timsoli orqali butun yer shariga ishora qilmoqda. Qachonlardir bir ota-onadan tug‘ilgan qabila vakillari hozir birpas birga o‘tira olmas yovlarga aylanishgan, o‘rtada mehr-u oqibat ham ko‘tarildi, hattoki ikki qabila vakillari bir-birlari bilan tilmoch orqali gaplashadigan bo‘lishdi, ularning dushmanliklari darajaga borib yetdiki, hatto ular bir-birlariga bo‘lgan dushmanliklarini, o‘zlarini yog‘iydan ustunliklarini har kuni, har lahma oshkor qilish yo‘llarini izlay boshladilar, nihoyat toshdan haykal qo‘yib, ummon suvlari urilib turgan sohilga o‘rnatishni qiz taraf boshlab berdi. Bu holatni ko‘rgan yigit taraf yog‘iylnikidan balandroq haykal qurib, ulardan ustunliklarini bildirib qo‘yishadi. Hikoyada tasvirlangan haykallar inson qalbidagi o‘tkinchi hoy-u havaslarga mukkasidan ketgan insonlarning ramzi sifatida tasvirlangan. Agar qabilalarning bu ishlariga e’tibor qaratsak, dunyoning turli mamlakatlari o‘rtasida bo‘layotgan turli xil voqealarga va kimo‘zarga bellashayotganliklariga ishora borligi ham seziladi. Asarda keltirilgan ushbu qabilalarning haykal qurishi oqibatida oroldagi barcha hayvonlar, daraxtlar, o‘rmonlar ayanchli ahvolga kelib qoladi, buning natijasida qabila vakillari esa hatto bir-birlarini tutib olib yeya boshlashadi. Bundan anglashiladiki, ortiqcha nafsga berilib ketish insonning qay holatlarga solishi mumkinligi anglashiladi.

Hikoyada yigit va qiz qo‘lidagi kitob esa, yer yuzidagi insonlar o‘z kitoblaridagi ta’limotlarni bir-biridan ustun qo‘yishib, qirg‘inbarot qilishsalarda, kitoblardagi mohiyat bitta ekanligi tushuniladi.

Muxtsasr qilib aytganda, hikoyani ayni zamon nuqtayi nazaridan olib qarasak, hozir ham odamlar bir-birlariga boshqacharoq bo‘lgani uchun, o‘zlariga o‘xshamagani, o‘zga tilda gaplashgani, boshqa dinga e’tiqod qilgani va shu kabi “begonalik”lari uchun yomon ko‘rishadi, dushmanlik qilishadi. Hikoyaning badiiy-estetik qiymati shundan iboratki, uning sharqona falsafiyligi, ya’ni,

“izlaganing o‘zingdadir”ni, tiriklik ma’nosи, hayot mohiyati kabi tushunchalar ramziy-majoziy obrazlar tasviri mohirlik bilan singdirib yuborilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Birinchi jild. Toshkent – 2006.346-b
2. Boltaboyev Hamidulla. „Adabiyot ensiklopediyasi”-T.:Mumtoz so‘z, 2014.290
3. Ulug‘bek Hamdam. „Safar” hikoyasi. Toshkent.:2015
4. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi.-T.:2006
5. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji.-T.:Yangi asr avlodi, 2002.